



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI  
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS  
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB  
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro  
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

**TO'PLAMI**

**13-noyabr 2025-yil**

**СБОРНИК материалов**

**международной научно и научно-технической конференции на тему  
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И  
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

**13 ноября, 2025 г**

**International scientific and scientific-technical conference  
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK  
AND THEIR SOLUTIONS"**

**November 13, 2025**

**NUKUS-2025**

**“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”**  
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to'plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

**Anjuman tashkiliy qo'mitasi**

**Tashkiliy qo'mita raisi:** Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

**Tashkiliy qo'mita raisi muovini:** Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

**Tashkiliy qo'mita kotibi:** Rozumbetov Kenjabek Umar og'li, b.f.f.d.;

**D. Bazarbayeva** – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o'qituvchisi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Tashkiliy qo'mita a'zolari:**

**Sh. Jabbarov** – O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

**X. Yunusov** – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

**M. Y. Karpuxin** – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

**N. G. Malkov** – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

**A. Abdurasulov** – Qirg'iziston Respublikasi O'sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo'jalik fanlar doktori, professor. (Qirg'iziston Respublikasi)

**R. Miqtibayeva** – Qozog'iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog'iston Respublikasi)

**S. Mirzakulov** – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo'jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog'iston Respublikasi)

**Q. Atanazarov** – O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**A. Mambetnazarov** – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i, qishloq xo'jalik fanlar doktori, dotsent.

**A. Kaniyazov** – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**X. Mamatov** – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo'jalik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**R. Turg'انبayev** – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

**A. Kamalova** – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**P. Xojalepesov** – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

**R. Rzaev** – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug'i bilan oliy ta'lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o'tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o'qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan

To'plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to'g'riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

- ОРДЕНА" ЗНАК ПОЧЕТА" ГОСУДАРСТВЕННОЙ АКАДЕМИИ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ Витебск, 04–05 ноября 2024 года Организаторы: Витебская государственная академия ветеринарной медицины.
13. Бакиров, Б., Рузикулов, Н. Б., & Сейпуллаев, А. К. (2024). ВЛИЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ «МИОСТА Н®» НА СОСТОЯНИЕ ОБМЕНА ВЕЩЕСТВ У КОРОВ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (3), 89-95.
  14. Досумбетович, А.С., и Кутлимуратович, С.А. Эффективные методы лечения скрытого хронического эндометрита у крупного рогатого скота в Каракалпакстане. *Академия Глоб*, 2 (05), 240-244.
  15. Хайдарова, Ш. Р. (2024). ДОКЛАД НА НМС КАФЕДРЫ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ НА ТЕМУ «ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ ГЕНДЕРА В ЛИНГВИСТИКЕ».
  16. Holmurotov, I. (2024). Janubiy Qoraqalpog'istondagi birikmali oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari. *IMRAS*, 7(3), 140-144.
  17. Berdiyev, B. Konvensial Yondashuv Asosida Talabalarni Mustaqil Ta'lim Olish Samaradorligining Didaktik Imkoniyatlarini Rivojlantirish. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali*, 675762.
  18. Holmurotov, I. (2023). QORAKO'LCHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JUN MAHSULOTLARINING MUHIMLIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 371-374.
  19. Холмуратов, И. (2021). Этимологический анализ некоторых ойконимов Южного Каракалпакстана. *Электронный инновационный вестник*, (2), 23-24.

## GOLISHTIN ZOTLI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

**Abuov S.Q., Janabaev T.B., Orinbaev S.B., Tanirbergenova G.K.**

*Samarqand davlat veterinariya medicinas, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Nukus filiali*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri — chorvachilik bo'lib, u aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, xususan, sut va sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishda katta ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda chorvachilikni modernizatsiya qilish, naslchilik ishlarini takomillashtirish, yuqori mahsuldor zotlarni ko'paytirish va saqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

G'olishtin (Holstein) zotli sigirlar dunyoda eng yuqori sut mahsuldorligi bilan ajralib turuvchi zotlardan biri hisoblanadi. Bu zot sigirlari yuqori genetik salohiyatga ega bo'lib, ularning yillik sut berish ko'rsatkichi, sut tarkibidagi yog' va oqsil miqdori bilan boshqa zotlardan ustun turadi. Shu sababli G'olishtin zotini o'rganish, ularning sut mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda mahalliy sharoitga moslashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb sanaladi.

**Tadqiqotning asosiy maqsadi** — G'olishtin zotli sigirlarning sut mahsuldorligini o'rganish, ularning genetik va fiziologik xususiyatlarini tahlil qilish, oziqlantirish hamda saqlash sharoitlarini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashdan iboratdir.

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan izlanishlar sut ishlab chiqarishning sifatini yaxshilash, naslning tanlash va seleksiya ishlarini takomillashtirish hamda fermer xo'jaliklari uchun yuqori iqtisodiy foyda olish imkonini beradi. Shu bois G'olishtin zotli sigirlarning sut mahsuldorligini chuqur o'rganish respublikamiz chorvachiligining barqaror rivojlanishida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sut inson organizmi uchun qulay bo'lgan ozuqa manbai hisoblanadi, sutni iste'mol qilgan insonlar kam kasal bo'lishgan. Ular doimo bardam bo'lib, mehnat qobiliyatlarini keksalikda ham saqlab qolishgan. Chunki sutning kimyoviy tarkibi juda boy bo'lib, inson uchun qimmatli bo'lgan 100 ga yaqin moddalarni saqlaydi. Shuning uchun ham qadimdan sut iste'molidagi birinchi oziq hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, sut asosan chorva mollaridan: qoramol, qo'y, echki, tuya, biya va bug'udan olinadi. Jami tayyor ya'ni yetishtirilgan sutni 83,0 foizdan ortig'ini sigir suti tashkil qiladi. Shuning uchun ham sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishga uning sifatini jahon andozalari talabi darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan har bir ilmiy tadqiqot ishi muhim hisoblanadi.

Sut mahsuldorligi ko'plab irsiy va paratipik omillarga bog'liq holda o'zgaradi. Sigirlar kelib chiqishining sut mahsuldorligi bilan bog'liqligi borasidagi izlanishlarimizni natijalari shuni ko'rsatganki, (1-jadval) haqiqatdan ham

II guruhdagi qora-ola zotiga mansub bo'lgan sigirlar laktatsiya davomida 4490,0 kg sut bergan bo'lsa, g'olishtin zotiga mansub bo'lgan sigirlarning sut mahsuldorligi 4965,5 kg ga teng bo'lgan.

Lekin shuni qayd etish lozimki, tajriba guruhidagi sigirlarning barchasining sut mahsuldorligi yuqori darajada bo'lgan. Jadval ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatdiki, har ikkala tajriba guruhlaridagi sigirlarning sut mahsuldorligi ularning kelib chiqishiga bevosita bog'liq bo'lgan.

**1-jadval**

**Tajriba guruhidagi sigirlarning sut mahsuldorligi,  $X \pm S_x$  (n=5)**

| Ko'rsatkichlar                                   | Guruhlar           |         |                    |         |
|--------------------------------------------------|--------------------|---------|--------------------|---------|
|                                                  | I                  |         | II                 |         |
|                                                  | $X \pm S_x$        | $C_v\%$ | $X \pm S_x$        | $C_v\%$ |
| Sut miqdori, kg                                  | 4965,5 $\pm$ 29,30 | 3,55    | 4490,0 $\pm$ 24,60 | 3,23    |
| Sut tarkibidagi yog', %                          | 3,81 $\pm$ 0,13    | 7,34    | 3,82 $\pm$ 0,05    | 2,87    |
| Sut tarkibidagi oqsil, %                         | 3,36 $\pm$ 0,10    | 7,14    | 3,38 $\pm$ 0,12    | 7,33    |
| Sut yog'i chiqimi, kg                            | 189,2 $\pm$ 2,98   | 3,53    | 171,5 $\pm$ 3,81   | 4,98    |
| Sut oqsili chiqimi, kg                           | 166,8 $\pm$ 4,30   | 5,78    | 151,8 $\pm$ 6,77   | 9,99    |
| 4 % li sut miqdori, kg                           | 4729,6 $\pm$ 29,50 | 1,39    | 4288,0 $\pm$ 14,10 | 0,73    |
| Quruq modda, %                                   | 12,31              | X       | 12,29              | X       |
| Yog'sizlantirilgan quruq sut qoldig'i (YOQSQ), % | 8,70               | X       | 8,63               | X       |
| Sut qandi, %                                     | 4,52               | X       | 4,47               | X       |

Laktatsiya davomida sog'ib olingan sut miqdori I tajriba guruhidagi sigirlarda 4965,5 kg ni tashkil qilib, bu ko'rsatkich bo'yicha o'z tengqurlari II tajriba guruhidagi sigirlardan 475,5 kg ( $P < 0,001$ ) yoki 9,6 foiz ko'p sut bergan.

**Xulosa.** Sut tarkibidagi yog' va oqsil ko'rsatkichi bo'yicha guruhlararo katta farq kuzatilmagan. Farq II guruh hayvonlari foydasiga 0,1 va 0,2 foizni tashkil qilgan. Sigirlarlardan sog'ib olingan sut miqdori va uning sifatiga qarab baholanganda sut yog'i hamda sut oqsili chiqimi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'tkazgan tadqiqotlarimizda bu ko'rsatkichlar I tajriba guruhidagi sigirlarda yuqori darajada bo'lib, sut yog'i chiqimi 189,2 kg ga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha ular o'z tengqurlari II tajriba guruhidagi sigirlardan 17,7 kg ( $P < 0,05$ ) yoki 9,3 foizga ustuvorlik qilishgan. Xuddi shuningdek sut oqsili chiqimi bo'yicha ular o'z tengdoshlariga nisbatan 15,0 kg ( $P < 0,05$ ) yoki 9,0 foizga yuqori bo'lgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абылкасымов Д., Вахонева А., Сударев Н. Тип телосложения и продуктивное долголетие молочных коров. Ж. «Молочное и мясное скотоводство», №7, 2010, с. 12-15.
2. Адушинов Д.Е., Устимов Е.М. Мясная продуктивность черно-пестро-голландского молодняка// Зоотехния 2002. №4. 21-22 с.
3. Анафасиева А.И. Молочная продуктивность коров симментальской породы отечественной и австрийской селекции. «Молочное и мясное скотоводство», №5, 2007, с. 28-29.
4. Айсанов З. Определение производственных типов крупного рогатого скота молочных пород. Ж. «Молочное и мясное скотоводство», №1, 1998, с. 29-30.
5. Абуов, С. К. (2017). Использование кормового концентрата в кормлении телят. *ББК 4я431 Н34*, 88.
6. АБУОВ, С., & БАБАДЖАНОВА, Н. СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ КОРМЛЕНИЯ МОЛОЧНЫХ КОРОВ. *ЕО IPSO Учредители: Издательство "Научная артель"*, (10), 89-90.
7. Абуов, С. К., & Жолдасова, У. Б. (2024). ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ ПТИЦЕВОДСТВА. *НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «IN SITU»*, 134.
8. Абуов, С. К., Камолова, Л. А. К., & Зарипбаев, С. К. У. (2024). КОРМОПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЖИВОТНОВОДСТВА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. *IN SITU*, (3), 97-99.
9. Абуов, С. К., Аллашова, К. К., Исмаилов, Н. У., & Усманова, Ж. С. (2024, November). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ МОЛОЧНОГО СКОТОВОДСТВА: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14229554>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 261-263).
10. Абуов, С. К., Ембергенова, Д. К. К., Реметуллаева, Д. Т. К., & Калилаева, Ж. Б. К. (2024). СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ОСВОЕНИЯ РЫНКОВ МЯСА ПТИЦЫ. *IN SITU*, (5), 132-134.
11. Абуов, С. К., & Илалова, Ж. Ж. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПЛЕМЕННОГО СКОТОВОДСТВА. *НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «A POSTERIORI»*, 26.
12. Абуов, С. К., & Бабаджанова, Н. (2023). РАЗВИТИЕ КОРМОВОЙ БАЗЫ КАК ОСНОВА ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ОТРАСЛИ МЯСНОГО СКОТОВОДСТВА. In *ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ОСНОВА ПРОГРЕССИВНЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ* (pp. 5-7).
13. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Урымбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. *Ветеринария*, (5), 29-32.
14. Уримбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. *Экологический Вестник Северного Кавказа*, 15(4), 91-93.
15. Уримбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. *Овцы, козы, шерстяное дело*, (1), 24-26.

16. Шакарбоев, Е., Сафарова, Ф., Азимов, Д., и Уримбетов, А. (2015). ФАУНА, ЭКОЛОГИЯ И ТАКСОНОМИЯ РЫБ-ГЕЛЬМИНОВ ИЗ ОТДЕЛЕНИЯ «КАРИООБРАЗНЫЕ» В УЗБЕКИСТАНЕ. *Журнал микробиологии, биотехнологии и пищевых наук*, 5 (1), 88.
17. Кислая, А. М. ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ В СФЕРЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ. *РАЗДЕЛ 6*.
18. Bobokulov, N., Khatamov, A., Abduzoirova, D., Yusupov, A., Urimbetov, A., & Olmasov, B. (2021). Meat productivity of sheep in Uzbekistan and its relationship with different factors. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 258, p. 04020). EDP Sciences.

## QORA OLA VA GOLISHTIN ZOTIGA MANSUB BOLGAN SIGIRLARNING O'SISH VA RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH

**Abuov S.Q., Janabaev T.B., Baltabaeva G.D., Turġanbekova N.Q.**

*Samarqand davlat veterinariya medicinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Nukus filiali*

**Kirish.** Mamlakatimizda chorvachilik, xususan, sut va go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik tarmog'ini rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Yuqori mahsuldor, kasalliklarga chidamli va mahalliy iqlim sharoitiga mos sigir zotlarini yetishtirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois, naslchilik ishlarini takomillashtirish, mavjud zotlarning biologik va xo'jalik-foydali xususiyatlarini chuqur o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Qora ola va g'olishtin zotlariga mansub sigirlar Respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, ularning yuqori sut mahsuldorligi, moslashuvchanligi hamda nasl berish qobiliyati bilan ajralib turadi. Ammo ularning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini chuqur o'rganish orqali naslchilik ishlarini yanada takomillashtirish, yosh buqalar va sigirlarning rivojlanish bosqichlariga mos ravishda boqish hamda parvarishlash tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

**Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi.** Qora ola va g'olishtin zotiga mansub sigirlarning o'sish sur'atlari, tana massasi dinamikasi hamda rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ularning o'rtasidagi farqlarni aniqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ma'lumki, hayvonlarni turi, zoti, jinsi, yoshi va mahsuldorlik yo'nalishidan qat'iy nazar tirik vazni muhim va asosiy seleksion belgisi bo'lib hisoblanadi va hayvonlarni rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Sigirlarning tirik vazni to'g'risida ham xuddi shu fikrlarni aytish mumkin. Sigirlarning tirik vazni, ularning irsiyatiga, oziqaning to'yimlilik ko'rsatkichlariga, asrash sharoitiga, ekologik xolatiga tabiiy-iqlimga va boshqa bir qator omillarga bog'liq bo'ladi.

Legoshin G.P. va boshqalar (2002), Proxorenko P., Amerxanov X. larning (2002) va M.E.Ashirovlarning (2017) ta'kidlashlaricha sigirlarning maqbul tirik vaznini aniqlash u yoki bu zotni takomillashtirishda yuqori genetik salohiyatga ega bo'lgan yuqori mahsuldor podalarni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek podalarni takomillashtirishda jahon genofondiga xos bo'lgan zotlarni naslli buqalaridan samarali ravishda chatishtirish ishlarida foydalanishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham biz o'z tadqiqotlarimizda turli psixo-etologik tiplarga mansub bo'lgan